

UMUMTA'LIM MAKTABLARI JARAYONIDA ESHITISHDA ,  
KO'RISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR VA TAYANCH HARAKAT  
A'ZOLARI BUZILGAN BOLALAR UCHUN INKLYUZIV TA'LIMNI AMALGA  
OSHIRISHNING ILMIY VA USLUBIY ASOSLARI

Djurayeva Sohiba Barat qizi

JDPU Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Salohiddinova Sevinch Qahramon qizi

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi

Anotatsiya

Umumta'lim maktablari jarayonida eshitish va ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalar hamda tayanch harakat a'zolari buzilgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni amalga oshirish, pedagogik va psixologiya sohlarida muhim ilmiy va uslubiy asoslarni talab qiladi. Ushbu maqolada bolalarga ta'lim berish jarayoni ularni ularning maxsus ehtiyojlarini hisobga olishni tushunish va ta'lim jarayonini haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar :imkoniyati cheklangan bola, pedagogik adaptatsiya, individual yondashuv, multimodal yondashuv

Har bir bola o'zining maxsus ehtiyojlarga ega, shuning uchun ularning ta'limi individual tarzda tashkil etilishi kerak. Eshitish va ko'rish nuqsonlari yoki harakat a'zolaridagi buzilishlarga qarab, o'quv jarayonini individuallashtirish orqali bolaning o'ziga mos metod va texnologiyalarni tanlash zarur. Har bir guruhdagi bolalarning rivojlanish tezligi va o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Misol uchun tayanch harakat a'zolari buzilgan bolalar uchun fizyoterapiya va motor rivojlanishning qo'llab-quvatlanishi, eshitish va ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalar uchun esa

moslashtirilgan o'quv materiallari va metodlardan foydalanish talab etiladi.[1 (Abdullaev, November 2022)]

Eshitish va ko'rish nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'limda vizual audial va kinestetik metodlarni birlashtirish muhimdir. Ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalar uchun rasmiy yoki tugmalarni o'qishga yordam beruvchi texnologiyalarni, eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar uchun esa ovozli va yozuvli materiallarni qo'llash mumkin.

Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi faqat ilmiy va akademik jihatlarni yod olish emas, balki o'quvchilarning jamiyatga moslashishi va ijtimoiy integratsiyani ta'minlashdir. Buning uchun, maxsus ehtiyojli bolalarga ijtimoiy o'zaro munosabatlar o'rgatishga yordam berish, guruhlariga ishlash va jamoa a'zosi sifatida faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish zarur.

Uslubiy asoslar, o'qituvchilarning o'quv jarayonini tashkil etish usullarini, o'quv materiallarini tayyorlash va taqdim etish metodlarini o'z ichiga oladi. O'qitish jarayonida, bolalarning ehtiyojlariga mos ravishda individual yondashuv, guruhli ishlar va hamkorlik o'rtanish muhimdir. Bu bolalarning o'zaro muloqotini rivojlanishiga va ijtimoiy ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. [2 (Noilaxon, 2022-12-31)]

Inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun o'qituvchilar, psixologlar va maxsus ta'lim mutaxassislari bilan hamkorlik qilish uchun zarur. Shuningdek, maxsus ta'lim resurslari, o'quv dasturlari va metodik qo'llanmalar ishlab chiqilishi lozim.

Inklyuziv ta'limda har bir bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olish muhim. Differensial ta'lim metodikasi bolaning maxsus ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim jarayonini moslashtirishni o'z ichiga oladi. Eshitish yoki ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ta'limda surdopedagogika va tiflopedagogika metodlarini qo'llash zarur. Bu metodlar o'quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradiv ta'lim jarayonida ularning erkin o'z ifodalarini ochishlariga yordam beradi. O'quvchilarga ko'p kanalli ta'lim berish usuli yordamida ular turli organlar orqali ma'lumotni qabul qilishlari mumkin. Ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus

yoza materiallar ,eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar uchun esa video materiallar yoki qisqacha izohlar bilan ko'rsatuvlar taqdim etilishi mumkin. Tayanch harakat a'zolaridagi buzilishlar bo'lgan bolalar uchun esa kinestetik metodlar ,maxsus ,masalan ,jismoniy mashqlar orqali ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlash zarur.[3 (Saidova, 2023)]

Inklyuziv ta'limning uslubiy asoslaridan biri – bu ijtimoiy integratsiya va jamoaviy ishning rivojlanishidir. Maxsus ehtiyojli bolalar uchun jamoaviy faoliyatlar ,guruhlarda ishlash ,o'rganish jarayonini yanada boyitadi. Bu uslub yordamida o'quvchilar bir-biridan o'rganishadi turli xil vaqtlarda o'z fikrlarini ifoda etishga imkoniyat yaratadilar, o'zaro hurmatni va do'stlikni rivojlantiradi.

### Xulosa

Umumta'lim maktablarida eshitish va ko'rish nuqsoni va tayanch harakat a'zolari buzilgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni amalga oshirish ilmiy va uslubiy asoslarni hisobga olgan holda rajashtirilishi kerak .Har bir bolaning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etish, jamoaviy faoliyatlarni rivojlantirish , ta'lim texnologiyalarini qo'llash va pedagoglarning malakasini oshirish orqali inkluziv ta'limni samarali tarzda amalga oshirish mumkin.bu ta'limni faqat ilmiy emas, balki ijtimoiy integratsiyani rivojlantirish, bolalarning o'z-o'zini anglashini va o'zgarishga tayyor bo'lishini ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1](Abdullaev, November 2022) Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlar va sabablar , inklyuziv ta'limga jalb qilish Needs and reasons for inclusive education, involvement in inclusive education
- [2] (Noilaxon, 2022-12-31)inklyuziv ta'limga bolgan ehtiyoj va sabablar
- [3] (Saidova, 2023) Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish xususiyatlari

[4] (Shuxratovna, May 17, 2024) Inklyuziv ta'lim va tarbiya nomli metodik q'llanmasi

---

<sup>ii</sup> (образовании, 2021) inklyuziv ta'lim va yengicha pedagogik yondashuvlar